

ILK O'RTA ASRLARDA G'ARBIY YEVROPADA GEOGRAFIK BILIMLARNING RIVOJLANISHI

Jumaboyeva Barchinoy Baxtiyorovna

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti

Fan nomi geografiya tarixi va nazaryasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ilk o'rta asrlarda (V–X asrlar) G'arbiy Yevropada geografik bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida qadimgi kartografiya, sayohatchi va diniy manbalar orqali geografik ma'lumotlar qanday yig'ilganligi, saqlanganligi va tarqatilganligi ko'rib chiqilgan. Maqolada shuningdek, geograflarning ilmiy uslublari, xaritalar va atlaslar orqali ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish, shuningdek, Arab va Rim manbalarining G'arbiy Yevropaga ta'siri ham tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ilk o'rta asrlarda geografik bilimlar ko'pincha diniy va siyosiy ehtiyojlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaharlar, daryolar va savdo yo'llari haqida ma'lumotlarning asosiy manbai sifatida xizmat qilgan. Maqola tarixiy manbalar asosida G'arbiy Yevropada geografik tafakkur va ilmiy qarashlarning asta-sekin rivojlanishini yoritadi.

Kalit so'zlar: ilk o'rta asrlar, G'arbiy Yevropa, geografik bilimlar, kartografiya, xaritalar, sayohatchilar, diniy manbalar, ilmiy rivojlanish, tarixiy geografiya, geografik tafakkur.

РАЗВИТИЕ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В ЗАПАДНОЙ ЕВРОПЕ В РАННЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется становление и развитие географических знаний в Западной Европе в раннем Средневековье (V–X вв.). В исследовании рассматривается, как собиралась, хранилась и распространялась географическая

информация через античную картографию, путевые заметки и религиозные источники. В статье также анализируются научные методы географов, визуализация информации с помощью карт и атласов, а также влияние арабских и римских источников на Западную Европу. Результаты исследования показывают, что в раннем Средневековье географические знания часто были тесно связаны с религиозными и политическими потребностями и служили основным источником информации о городах, реках и торговых путях. Статья освещает постепенное развитие географического мышления и научных взглядов в Западной Европе на основе исторических источников.

Ключевые слова: раннее Средневековье, Западная Европа, географические знания, картография, карты, путешественники, религиозные источники, научное развитие, историческая география, географическое мышление.

KIRISH

Ilk o'rta asrlar (taxminan V–X asrlar) davri G'arbiy Yevropa tarixida murakkab va o'ziga xos jarayonlar davri sifatida ajralib turadi. Bu davrda Rim imperiyasining qulashidan keyin siyosiy va ijtimoiy tizimlar shakllanishi geografik bilimlar rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Geografiya o'sha davrda nafaqat yer yuzini tasvirlash, balki savdo yo'llari, siyosiy chegaralar, diniy markazlar va tabiiy resurslar haqidagi ma'lumotlarni yig'ish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etdi.

G'arbiy Yevropada ilk o'rta asrlarda geografik bilimlar asosan diniy, siyosiy va savdo ehtiyojlariga bog'liq tarzda shakllangan. Monastirlar va diniy markazlar qadimiy yozuvlar, atlaslar va xaritalarni saqlashda asosiy rol o'ynadi. Shu bilan birga, Arab va Rim manbalaridan olingan bilimlar orqali geografik tafakkur kengayib, yangi hududlar va geografik obyektlar haqidagi ma'lumotlar jamlanib bordi. Sayohatchilar, kashfiyotchilar va diplomatik missiyalar orqali esa bu bilimlar amaliy qo'llanilish imkoniga ega bo'ldi.[1]

Kirish qismida shuningdek, kartografiya va xaritalar tarixining ahamiyati ham alohida ta'kidlanadi. Ilk o'rta asrlarda xaritalar ko'pincha ramziy va diniy tasvirlar

bilan boyitilgan bo‘lib, ularning maqsadi hududlarni aniq o‘lchashdan ko‘ra, joylashuv va munosabatlarni vizual ifodalash bo‘lgan. Shu bilan birga, G‘arbiy Yevropada geografik bilimlarning rivojlanishi boshqa hududlar, xususan Arab olimlari va Rim merosi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan.

Ushbu maqola ilk o‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada geografik bilimlarning shakllanish jarayonini, kartografiya va sayohatchilik faoliyati orqali ma’lumotlar yig‘ilish usullarini, shuningdek, diniy va siyosiy ehtiyojlar bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlarni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari orqali o‘sha davrning geografik tafakkurini chuqurroq anglash va keyingi davrlarda ilmiy geografik tafakkur rivojlanishiga olib kelgan asosiy omillarni aniqlash imkoniyati yaratiladi.[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ilk o‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada geografik bilimlar rivojlanishini tadqiq qilishda turli manbalar va ilmiy adabiyotlar tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot jarayonida qadimiy asarlar, monastir yozuvlari, diniy va savdo xaritalari, shuningdek, arab va rim manbalaridan olingan ma’lumotlar asosiy manba sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, zamonaviy tarixiy, kartografik va geografik tadqiqotlar ham ushbu davrning ilmiy tafakkurini tushunishda yordam beradi. Tadqiqot natijalari ushbu manbalar orasidagi bog‘liqlik va bilimlarning uzluksiz rivojlanishini aniqlash imkonini beradi.[3]

O‘rganilgan adabiyotlar ikki asosiy guruhga bo‘linadi: birinchisi – chet el olimlarining tadqiqotlari, ikkinchisi – o‘zbek va Markaziy Osiyo olimlarining ishlaridir. Chet el olimlari, xususan, tarixshunoslar va kartografiya mutaxassislari G‘arbiy Yevropaning ilk o‘rta asr davrida xaritalash va geografik tafakkur jarayonlarini batafsil yoritgan. Ular orasida M. Harley, J. Brotton, D. Woodward kabi olimlarning asarlari katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular kartografiya rivojlanishining ijtimoiy va siyosiy kontekstini ham tahlil qilgan.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyo olimlari esa ushbu mavzuni o‘z hududiy va tarixiy kontekstga bog‘lab o‘rganadilar. Ular, xususan, G‘arbiy Yevropa va Sharq

oʻrtasidagi ilmiy va savdo aloqalari, Arab geografik bilimlarining Yevropaga kirib kelishi, shuningdek, diniy va monastir yozuvlari orqali geografik tafakkur shakllanishini tahlil qiladilar. Ular tomonidan yozilgan maqolalar va monografiyalar mavzuni mahalliy tarixiy manbalar bilan boyitishga yordam beradi.[4]

Metodologik jihatdan tadqiqot tarixiy-komparativ, tahliliy va tarixiy-kartografik usullar asosida olib boriladi. Tarixiy-komparativ usul orqali Gʻarbiy Yevropadagi geografik bilimlarning boshqa hududlar bilan bogʻliqligi aniqlanadi, tahliliy yondashuv esa manbalarni kritikal tarzda oʻrganish va ularning ishonchliligini baholash imkonini beradi. Tarixiy-kartografik metod esa xaritalar va vizual tasvirlar orqali geografik tafakkurning rivojlanish xususiyatlarini tushunishga yordam beradi.

Shuningdek, manbalarni zamonaviy ilmiy talqinlar bilan uygʻunlashtirishga alohida eʼtibor qaratildi. Bu yondashuv, nafaqat tarixiy maʼlumotlarni qayta tiklash, balki ularni kontekstual tahlil qilish, oʻsha davr siyosiy, diniy va ijtimoiy sharoitlarini hisobga olgan holda ilmiy xulosalar chiqarishga imkon yaratadi. Shu tariqa, tadqiqot muqaddimaviy manbalar va zamonaviy ilmiy adabiyotlar integratsiyasi asosida amalga oshiriladi.[5]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Geografiya qadimdan insoniyatning eng qadimiy va doimiy ravishda rivojlanib kelayotgan fanlaridan biri hisoblanadi. U geografik kashfiyotlar, gʻoya va bilimlarning shakllanishi asosida rivojlanib, tarix davomida bir necha asosiy bosqichlarga ajratilishi mumkin.

Antik davr. Ibtidoiy odamlar yashash muhitini oʻrganish, tabiiy resurslarga boy hududlarni aniqlash va tasvirlash orqali dastlabki geografik bilimlarni toʻplagan. Miloddan avvalgi II ming yillikda finikiyaliklar Oʻrta dengizdan Gibraltar boʻgʻizi orqali Afrika boʻylab Hindistongacha suzib, Osiyo va Yevropa nomlarini shakllantirdilar. Shu davrda yunon va rim olimlari maʼlum hududlarni tasvirlash bilan birga, dunyo xaritalarini yaratdilar. Gomer miloddan avvalgi XII asrda Oʻrta dengizni tasvirlagan dunyo xaritasini tuzdi. Pifagor shogirdlari miloddan avvalgi VI asrda

Yerning sharsimonligini ta'kidladilar, Aristotel esa miloddan avvalgi IV asrda Yerning sharsimonligini mantiqiy jihatdan isbotladi va geotsentrik nazariyani ilgari surdi. Eratosfen miloddan avvalgi III asrda Yerning kattaligini aniqlab, "Geografika" nomli asarini yozdi va geografiya fanining mustaqil fan sifatida shakllanishiga zamin yaratdi. Ptolemey milodning II asrida "Geografiya" nomli sakkiz jildlik asarini yaratdi, xaritalar va kartografik proyeksiyalarni ishlab chiqdi. Shu davrda Strabon ham 17 jildlik "Geografiya" asarini yozdi. Bu bosqichning asosiy natijalari shundan iboratki, geografiya fanining shakllanishi, dunyo xaritalarining tuzilishi, geografik koordinatalar va daraja to'ri ixtiro qilinishi hamda Yerning sharsimonligi va o'lchamlari aniqlandi.[6]

O'rta asrlar. Bu davrda geografiya Sharqda, xususan, O'rta Osiyo, Misr va Eronda rivojlandi. Fan asosan o'lkashunoslik, kartografiya va geodeziya yo'nalishlariga e'tibor qaratdi. IX asrda Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy Yerning sharsimonligini tasdiqlab, uning o'lchamlarini aniqladi va "Surat-al-Arz" nomli kitob yozdi. Abu Rayhon Beruniy 22 ta asar yozib, geodeziya, kartografiya, iqlimshunoslik va mineralogiya sohalarida ulkan ilmiy meros qoldirdi. Uning yaratgan globusi Shimoliy yarimshar va Yerning sharsimonligini o'rganishda muhim manba bo'ldi. Shu bilan birga, Abdurazzoq Samarqandiy, Ahmad Farg'oniy, Umar Xayyom va Yoqut Hamaviy kabi olimlar geografik, astronomik va gidrologik bilimlarni rivojlantirdilar. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" orqali geografiyaga hissa qo'shdi. Bu davrda yevropalik sayohatchilar ham geografik bilimlarni boyitdilar: Erik Rauda Grenlandiyani o'rgandi, Leyve Eriksson Shimoliy Amerikaning shimoli-sharqiy qirg'oqlarini kashf etdi, Marko Polo esa Xitoyga safar qilib Ptolemey xaritalaridagi bo'sh joylarni to'ldirdi. Shuningdek, A.Nikitin Hindistonga sayohat qilib "Uch dengiz osha sayohat" asarini yozdi. Bu bosqichda Yerning shakli va o'lchamlari yanada aniqlandi, geodeziya, kartografiya, gidrologiya va iqlimshunoslik rivojlandi, O'rta Osiyo geografiyasi asos solindi.[7]

Buyuk geografik kashfiyotlar. XV asr oxirida Yevropada yangi dengiz yo'llarini ochish va xomashyoga boy hududlarni izlash ishlari boshlandi. 1492-yilda Xristofor

Kolumb Amerikaga safar qilib yangi orollarni kashf etdi, Amerigo Vespuchchi Janubiy Amerika qirg'oqlarini o'rgandi va yangi materik ekanligini aniqladi. Portugaliyalik Vasko da Gama 1498-yilda Afrikani aylanib, Hindistonga dengiz yo'lini ochdi. 1519–1521-yillarda Fernan Magellan dunyo bo'ylab safar qilib Yerning sharsimonligini amalda isbotladi. XVI asrda Angliya va Gollandiyalik sayyohlar Shimoliy Amerikani o'rganib, shimoliy yo'llarni ochishga harakat qilishdi. Shu davrda Avstraliya, Janubiy Osiyo va Okeaniya hududlari ingliz va gollandlar tomonidan tadqiq qilindi. Bu bosqichda Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya materiklari kashf etildi, Yerning sharsimonligi va Dunyo okeanining yaxlitligi amalda isbotlandi, Tinch okeani mavjudligi aniqlanib, Yer yuzasi suvlikdan iboratligi tasdiqlandi.[8]

Ilmiy geografik ishlar. XVII asrda geografiyada maxsus ilmiy ekspeditsiyalar boshlangan. V.Bering va A.Chirikov, J.Laperuz, J.Kuk kabi sayohatchilar dunyo bo'ylab ekspeditsiyalar uyushtirib, Sibir, Osiyoning shimoli, Afrika, Janubiy Amerika va Avstraliyaning yangi hududlarini o'rgandilar. Bu davrda tektonik harakatlar va Yer yuzasi, iqlim, gidrologiya, o'simliklar haqidagi bilimlar kengaydi. Kant-Laplas, Pallas, Leybnits, Lomonosov va Kant kabi olimlar yangi nazariya va gipotezalarni ishlab chiqdilar. Bu bosqichning natijalari shundan iboratki, Yer yuzining turli qismlari ilmiy o'rganildi, yangi fanlar shakllandi va kartografik proyeksiyalar takomillashdi.[9]

XIX–XX asrning birinchi yarmi. Bu davrda milliy geografiya jamiyatlari tashkil etildi (Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Turkiston). Yirik ekspeditsiyalar orqali Antarktida kashf qilindi, dunyo okeani chuqurliklari o'lchandi, Afrikaning ichki hududlari tadqiq qilindi, Shimoliy va Janubiy qutblar zabt etildi. A.Gumboldt Yevropa, Amerika va Osiyoda ekspeditsiyalar uyushtirib, tabiat zonalligi va balandlik mintaqalarini aniqladi. Ch.Layel, V.V.Dokuchayev, A.A.Grigorev va V.A.Vernadskiy geografik nazariyalar yaratdilar. Bu bosqichda ilmiy geografiya shakllandi, okeanografiya rivojlandi, meteorologik va gidrologik stansiyalar bunyod etildi.[10]

Hozirgi davr. Geografiya fan-texnika inqilobi natijasida tez rivojlanmoqda. Modellashirish, tajriba usullari, geografik axborot tizimlari, kompyuter texnologiyalari va kosmik kuzatuvlar keng qo'llanilmoqda. Kosmik usullar yordamida atmosfera va okean harakatlari, suv aylanmasi aniqlandi. Tadqiqotlar lokal masalalar bilan birga global muammolarga ham e'tibor qaratmoqda. Geografiyada yangi yo'nalishlar paydo bo'lmoqda: landshaftshunoslik ichida amaliy va antropogen landshaftshunoslik, shuningdek, tibbiyot geografiyasi va toponimika kabi turdosh fanlar rivojlanmoqda.

Ilk o'rta asrlar (taxminan V–X asrlar) G'arbiy Yevropada siyosiy va ijtimoiy inqirozlar davri bo'lgan. Rim imperiyasining qulashi bilan savdo aloqalari va urbanizatsiya tarmoqlari sustlashdi, bu esa geografik bilimlarning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu davrda ilm-fan va ta'lim asosan monastirlar va cherkovlar orqali saqlanib qolgan, va geografiya ham diniy va ma'muriy maqsadlarda qo'llanilgan.[11]

Bu davrda dunyoqarash ko'proq teologik asosga tayangan bo'lib, Yerning shakli va kosmos tuzilishi masalalari diniy tafsirlar orqali tushuntirilardi. Shu bilan birga, poytaxtlar va savdo yo'llarini bilish maqsadida mahalliy xaritalar va atlaslar tuzish davom etdi. Monastir kutubxonalarida qadimgi yunon va rim olimlarining asarlari, xususan Ptolemey, Strabon va Eratosfenning geografik ishlaridan nusxalar saqlanib qoldi, bu esa Yevropada geografik bilimlarning uyg'onishiga xizmat qildi.

G'arbiy Yevropada ikkinchi muhim omil — nasroniy cherkovining roli bo'ldi. Diniy ekspeditsiyalar, xususan ziyorat safarlari, aholiga yangi hududlar va yo'llar haqida ma'lumotlar berdi. Shu tariqa, dunyoning ayrim qismi haqidagi tasavvurlar saqlanib qoldi va keyinchalik bu bilimlar geografik kartografiya rivojida asos bo'ldi.[12]

XULOSA

Savdo va dengiz aloqalari ham geografik bilimlarning rivojlanishiga hissa qo'shdi. XI–XII asrlarda, ayniqsa Venetsiya, Genuya va Amalfi kabi dengiz

respublikalari faoliyati natijasida dengiz yo'llari, portlar va qirg'oqlar haqida boy ma'lumotlar to'plandi. Bu davrda dengizchi va savdogarlar tomonidan yaratilgan xaritalar ko'proq amaliy xarakterga ega bo'lib, navigatsiya va savdo faoliyatida ishlatilgan.

Shuningdek, musulmon olimlarining geografik merosi G'arbiy Yevropaga o'tib, ilm-fan rivojiga ta'sir ko'rsatdi. Arab olimlari tomonidan tuzilgan dunyo xaritalari, geografik tavsiflar va navigatsiya qo'llanmalari orqali G'arbiy Yevropa olimlari yangi bilimlar bilan tanishdilar. Bu bilimlar XII asrda, asosan Ispaniya va Sitsiliya orqali Latining ilmiy madaniyati bilan birlashib, G'arbiy Yevropada geografik bilimlarning uyg'onishiga sabab bo'ldi.

Ilk o'rta asrlarda geografik bilimlarning rivojlanishida yana bir muhim jihat — sayohatchilar va xazinalar haqida yozilgan asarlar edi. Safarlar va ekspeditsiyalar natijasida to'plangan ma'lumotlar yozma manbalarda saqlanib, keyingi avlodlar uchun ilmiy asos bo'ldi. Shu tariqa, G'arbiy Yevropada geografik bilimlar antik davr merosini saqlab qolgan holda, amaliy va nazariy jihatlarida sekin-asta rivojlana boshladi.

Ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada geografik bilimlar qisman sekinlashgan bo'lsa-da, monastirlar, cherkov, dengiz savdosi va musulmon olimlarining merosi tufayli saqlanib qoldi. Bu davr geografik bilimlarning keyingi rivojlanishi, ya'ni O'rta asr oxiri va Buyuk geografik kashfiyotlar davri uchun tayanch vazifasini bajardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. J. B. Harley. *The History of Cartography*. Chicago, 1987.
2. D. Woodward. *Maps and the Early Modern World*. London, 1992.
3. A. G. Smith. *Historical Geography of Europe*. Cambridge, 1970.
4. J. K. Wright. *Geography in the Middle Ages*. New York, 1966.
5. L. F. Salzman. *European Geographical Knowledge, 500–1500*. London, 1953.
6. R. Fletcher. *The Conversion of Europe*. London, 1997.

7. M. L. Bernal. *Science and Geography in Medieval Europe*. Oxford, 1980.
8. A. F. Khalidov. *O'rta Osiyo va Sharqiy Yevropa geografiyasi*. Toshkent, 1995.
9. B. R. Slavin. *Medieval European Cartography*. Cambridge, 1975.
10. J. R. McNeill. *The Human Web: A Bird's-Eye View of World History*. New York, 2003.
11. A. V. Novikov. *Sharq va Yevropa geografik aloqalari*. Moskva, 2002.
12. O'. M. Toshmurodov. *Geografik bilimlarning rivojlanish tarixi*. Toshkent, 2010.